

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**«XALQ IJODIYOTI» FAKULTETI
«MUSIQA NAZARIYASI» fanidan**



KURS ISHI

Mavzu: «Intervallar»

**BAJARDI: 1- kurs «FEJR» bo'limi talabasi
Abdumurotov G.**

Toshkent 2015

REJA:

1. Oddiy intervallar va ularni son va sifati.
2. Intervallar aylanishi.
3. Tarkibli intervallar.
4. Oxangdosh va nooxangdosh intervallar.
5. Konsanans va dissonans intervallar

Xulosa

Foydalinilgan Adabiyotlar

Kirish

Musiqqa- muzalar san'ati hisoblanadi. Musiqqa so'zi ham shundan kelib chiqqan. (muzalar - qadimgi yunon mifologiyasidagi san'at va fan ma'budalari. Ular shoir va san'atkorlarga ilhom beradi deb hisoblangan. Shuning uchun antik poeziya asarlarining boshida, ko'pincha muzalarga murojaat qilingan. Antik shoirlardan Gesiod (7-asr) 9 muzani eslatib o'tadi. Xususan, Klio - tarix, **Evterpa** – **poeziya va musiqa**, Taliya – komediya, Melpomena – tragediya, Terpsixora – o'yin, Ereto – muhabbat lirikasi, Poligimniya – madhiyalar, Uraniya – astronomiya, Kalliopa – epos ma'budalaridir. Apollon muzalar xudosi hisoblangan. Muzalar obrazi Evropa tasviriy san'atida o'z ifodasini topgan.)

Musiqqa adabiyot, she'riyat, teatr yoki kino kabi imazmunni aniq ifodalay olmaydi. Shuningdek, u tasviriy san'at yoki haykaltaroshlik kabi aniq obrazlar ham yarat olmaydi. Musiqaning o'ziga xos xususiyati – mazmunni yuksak umumlashma darajasida ifodalash va birinchi navbatda inson his-tuyg'ulari doirasiga ta'sir qilishdan iboratdir. Ro'y berayotgan har bir hodisa, voqea, taassurotlar insonni dardliq, g'am-hasrat, nafrat, hayronqolish, mayinlik, hayratlanish kabi oddiy so'z bilan tasvirlab bo'lmaydigan boshqaroq plagan javob his-tuyg'ularini uyg'otadi. Musiqaning inson holatlarining anashunday turli-tumani ko'rishlarini ifodalash imomkin.

Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi interval deyiladi. Birin-ketin eshitilgan tovushlar melodik interval deyiladi. Baravariga eshitilgan tovushlar garmonik interval deyiladi. Intervallarning pastki tovushi asosiy yuqoridagi tovush cho'qqisi deyiladi.

Baravariga (bir vaqtda) eshitilgan tovushlar garmonik interval hosil qiladi.

Intervalning pastki tovushi interval asosi, yuqori tovushi esa interval cho'qqisi deyiladi. Masalan: Intervallarning melodik harakatlari vaqtida ko'tariluvchi va pastlashuvchi intervallar hosil bo'ladi.

Masalan: Barcha garmonik intervallar va kutariluvchi uning yo'nalishi ham ko'rsatiladi.

Har bir interval ikki miqdor— son va sifat miqdori bilan aniqlanadi.

Miqdori pog'onalar soni bilan ifodalangan intervallar son miqdorli intervallar deyiladi.

Miqdori ton va yarim tonlar soni bilan ifodalangan intervallar sifat intervallari deyiladi.

Bir oktava oralig'ida hosil bo'lgan interval oddiy interval deyiladi. Hammasi bo'lib sakkizta oddiy interval bor. Ularning nomi shu intervallar hisobiga kiradigan pog'onalar soniga bog'liqdir. Intervallar latin tilida tartibli sonlar bilan nomlanadi. Tartibli sonlar interval yuqori tovushining pastki tovushga nisbatan nechanchi pog'onada turganligini bildiradi. Bundan tashqari intervallarni qisqa qilib yozish uchun raqam bilan ham belgilanadi.

Quyida barcha oddiy intervallarning nomi va ularning *do* tovushidan pastga va yuqoriga qarab tuzilish tartibi ko'rsatilgan: *h Prima*— 1, birinchi (bir xildagi ikki tovushning unison bo'lib eshitilishi)

5-paragrafda yonma-yon turgan tovushlar oralig'ining yarim ton yoki butun tonga teng kelishi aytib o'tilgan zdi. Demak, sekunda intervali ham yarim tondan va butun tondan tuzilishi mumkin ekan.

Masalan, *mi* — *fa* tovushlaridan iborat sekunda intervali yarim tonga teng bo'ladi (*mi* — *fa*^{-1/2}tonga). *Fa* — *sol* tovushlaridan iborat sekunda intervali butun tonga teng bo'ladi (*fasol* = 1 tonga).

Xuddn shu singari bir turdagi boshqa intervallar tonlari-ning soni ham bir xilda emas.

Masalan, *do—mi* tersiya intervaliga kiradi, lekin u ikki

tonga teng (*do—mi* = 2 tonga), *re—fa* ham tersiya intervaliga ki-rib, bir yarim tonga teng (*re—fatonga*).

Yuqorida keltirilgai misollardan, intervallarning sifat miqdori bir turdagi intervallarning xilma-xil bo‘lib eshitili-shichi belgilar ekan degan xulosaga kelish mumkin.

Intervalning sifat miqdorini belgilash uchun: kichik, katta, sof, orttirilgan, kamaytirilgan degan so‘zlar ishlatiladi.

Tovushqatorning asosiy pog‘onalari orasida (bir oktava oralig‘ida) quyidagi intervallar hosil bo‘ladi: 1. Sof primalar = O tonga

2. Kichik sekundalar = 1/2 tonga

3. Katta sekundalar = 1 tonga

4. Kichik tersiyalar = 1,5 tonga 5. Katta tersiyalar = 2 tonga 6. Sof kvartalar = 2,5 tonga

-7. Orttirilgan kvarta = 3 tonga 8. Kamaytirilgan kvinta = 3 tonga -9. Sof kvintalar = 3,5 tonga

10. Kichik sekstalar = 4 tonga

11. Katta sekstalar = 4,5 tonga

12. Kichik septimalar = 5 tonga

13. Katta septimalar ~ 5,5

14. Sof oktavalar = 6 tonga

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha intervallar asosiy intervallar deb ataladi. Bu intervallar tabiiy major va tabiiy minor-shtag pog‘onalari orasida hosil bo‘lganligi uchun (5- bobga qarang) diatonik intervallar ham deyiladi.

Barcha diatonik intervallarni istalgan asosiy pog‘ona yoki hosila pog‘onadan pastga hamda yuqoriga tomon tuzish mumkin.

Masalan: Diatonik intervallar kuyning asosi hisoblanadi. Xilma-xil ko‘rinishdagi melodik intervallarning uyg‘unlashuvi natijasida kuy harakatining

ifoda kuchi rang-barang bo'ladi. Masalan:

Har bir diatonik interval orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunga diatonik intervalga kiradigan pog'onalardan bi-rini xromatik prim tonga pasaytirish yoki ko'tarish yordami bilan erishiladi. Shuni ham aytish kerakki, orttirilgan intervallar sof va katta intervallardan, kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervallardan tuzilishi mumkin. Faqat sof prima bundan istisno bo'lib, kamaytirilmaydi.

Barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar xromatik deb ataladi.

Uch tondan iborat orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallarni (bular diatonik intervallar bo'lganligi uchun) xromatik intervallar qatoriga qo'shish mumkin emas.

Misollar:

Orttirilgan intervallar: ¹ a) eng yuqori pogona (cho'qqisi)ning ko'tarilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar;

b) pastki pogona (asosi) ning pasaytirilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar:

Kamaytirilgan intervallar:

a) yuqori pogona (cho'qqisi) ning pasaytirilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar:

Yuqorida ko'rsatilgan har bir xromatik interval tonining soni diatonik (asosiy) intervallardan birortasining soniga teng keladi.

Masalan: ort. 2=kich. 3 ga ($1 \frac{1}{8}$ tonga):

kamaytirilgan 7 = katta 6 ga ($4 \frac{1}{2}$ tonga):

Son miqdori turlicha va eshtilishi bir xilda bo'lgan intervallar engarmonik teng intervallar deyiladi.

Engarmonik teng intervallar orasida son miqdori bir xil bo'lgan intervallar ham uchraydi, bunday hollarda, taqqoslangan intervallardan birortasining ikkala tovushi engarmonik tovush-lar bilan almashtiriladi:

Yuqorida aytilgan xromatin intervallardan tashqari, biror intervalni ikkita xromatik yarim tonga orttirish natijasida ikki marta orttirish va pasaytirish

natijasida ikki marta ka-maytirilgan intervallar hosil bo'lishi mumkin.

Ikki marta orttirilgan kvarta va ikki marta kamaytirilgan kvinta boshqa intervallarga qaraganda ko'p uchraydi.

2. Intervallarning son va sifat miqdori har bir interval son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Pog'onalar soni bilan ifodalangan intervallar son miqdori intervallar deyiladi. Ton va yarim tonlar soni bilan ifodalangan intervallar sifat miqdorli intervallar deyiladi. Bir oktava oraligida xosil bo'lgan interval oddiy interval deyiladi.

Sakkizta oddiy interval bor. Intervallar lotin tilida nomlanadi.

Prima-1. Sekunda-2. Tertsiya-3. Kvarta-4. Kvinta-5. Seksta-6. Septima-7. Oktava-8

Intervalning sifat miqdorini belgilash uchun; kichik, katta, sof, ortirilgan, kamaytirilgan so'zlar ishlatiladi.

- | | |
|-----------------------------|----------------------------|
| 1. Sof prima =0, ton. | Kichik sekunda =0,2 ton |
| 2. Katta sekunda =1 ton. | Kichik tertsiya =1,5 ton |
| 3. Katta tertsiya =2 ton. | Sof kvarta =2,5 ton |
| 4. Ortirilgan kvarta=3 ton. | Kamaytirilgan kvinta=3 ton |
| 5. Sof kvinta =3,5 ton | Kichik seksta =4 ton |
| 6. Katta seksta =4,5 ton | Kichik sentima =5 ton |
| 7. Katta sentima =5,5 ton | |
| 8. Sof oktava =6 ton | |

Bu intervallar diatonik deb ataladilar.

3. Ortirilgan va kamaytirilgan intervallar."

Har bir diatonik interval ortirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Ortirilgan intervallar sof va katta intervallardan tuziladi. Kamaytirilgan intervallar sof va kichik intervallardan tuziladi. Fakat sof prima kamaymaydi. Barcha ortirilgan va kamaytirilgan intervallar xromatik deb ataladi. Uch tonlikdan tashqari.

Ortirilgan intervallar Kamaytirilgan intervallar

Xromatik interval Diatonik interval soniga teng keladi. Ortirilgan. 2 = kichik. 3 (1,5 ton) kamaytirilgan. 7 = katta. 6 (4,5 ton).

Son mikdori turlicha va eshitalishi bir xilda bo'lgan intervallar engarmonik Teng intervallar deyiladi.

Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush past-ga joylashadi. Bunga interval aylanishi deyiladi. Tovushlarning ko'chishi ikki yo'l bilan bo'lishi mumkin:

1. Interval asosini (pastki tovushni) bir oktava yuqoriga ko'chirish.
2. Interval cho'qqisini (yuqori tovushni) bir oktava pastga ko'chirish. V/ Mazkur intervalning aylanishi natijasida yangi interval hosil bo'ladi:

Qoida bo'yicha, barcha sof intervallar — sofga, kichik intervallar — kattaga, katta intervallar — kichikka, orttirilgan intervallar — kamaytirilganga, kamaytirilganlari — orttirilgan-ga, ikki marta orttirilgan intervallar — ikki marta kamaytirilgan intervallarga aylanadilar va aksincha. V/Orttirilgan ok-tavagina aylanishdan mustasnodir. Agarda biror interval va uning aylanmasini birlashtirsak, natijada oktava hosil bo'la-p.i. Shuning uchun bir-biriga aylanadigan intervallar sifat miq-dorining hajmi hamma vaqt olti tonga teng bo'ladi.

Berilgan biror tovushdan yuqoriga va pastga qarab seksta yoki septima intervali tuzishni yengillashtirish uchun intervallar aylanishi qoidasidan foydalanish tavsiya qilinadi. Berilgan biror intervalni yuqoriga tomon tuzish uchun asosiy tovushdan bir oktava yuqorida joylashgan tovush aniqlanadi, so'ngra undan pastga tomon berilgan interval aylanmasi sanaladi. Masalan, *fa* tovushidan yuqoriga tomon kichik seksta tuzish talab qilinsa:

Berilgan biror intervalni pastga tomon tuzish uchun asosiy tovushdan bir oktava pastda joylashgan tovush aniqlanadi, so'ngra, undan yuqoriga tomon berilgan interval aylanmasi sanaladi. Masalan, *do-diyez* tovushidan pastga tomon katta septima tuzish talab qilinsa:

Muzikada oddiy intervallardan tashqari, oralig'i oktavadan keng intervallar ham qo'llaniladi. Oralig'i bir oktavadan keng intervallarga tarkibli intervallar deyiladi. Tarkibli intervallar oddiy intervallarni oktavaga qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi Shunday qilib, oktava orqali tuzilgan avvalgidek intervallar" hosil bo'ladi va ular tuzilishlariga qarab turlicha nomlanadilar.

Har bir tarkibli interval uning tarkibidagi pogʻonalar so-niga qarab mustaqil nomlar bilan ataladi:

nona-9, oktava orqali tuzilgan sekunda *detsima-YU*, oktava orqali tuzilgan tersiya *undetsima-11*, oktava orqali tuzilgan kvarta *duodetsima-12*, oktava orqali tuzilgan kvinta *tersdetsimaL*, oktava orqali tuzilgan seksta *kvartdetsima-14*, oktava orqali tuzilgan septima *kvintdetsima-15*, oktava orqali tuzilgan oktava tarkibli intervallarning sifat miqdorini belgilash uchun I intervallarda ishlatiladigan sof, katta, kichik, orttiril-yegan soʻzlar soʻllaniladi.

Tarkibli intervallar aylanganda, undagya tovushlarning koʻchish uslubi **GI tvrtibda** boʻlishi mumkin: a) tarkibli interval tovushlaridan biror-ng (pastki topushning yuqoriga yoki yuqorigi tovushning pastga) ikki ok-**koʻchishi**; S) tarkibli intervalning har ikkala tovushining qarama-qar-Rndiling) tomonga bir oktavaga koʻchishi. Masalan:

Tarkibli intervallar sof kvintdetsima (qoʻsh oktava) dan ham keng oʻratilishi mumkin. Bunday hollarda oddiy intervallar nomi saqlanib, Rki uch oktava orqali tuzilgan» degan soʻzlar qoʻshib ishlatiladi. Masalan 3 ikki oktava orqali;

Tarkibli intervallarning boshqa bir tarkibli intervallarga aylanish ,rn ham boʻladi. Bunda tovushlar ikki oktavaga koʻchadilar va qarama-qarshi yoʻnaladilar.

Diatonik shakldagi garmonik intervallar ohangdosh va noohangdosh intervallarga boʻlinadi.

Muzikada ohangdoshlik (konsonans) deb bir-biri bilan uygʻun-lashgan, ohangdosh boʻlib eshitilgan tovushlar yangrashi (yigʻindi-si)ga aytiladi.

Noohangdoshlik (dissonans) deb bir-biri bilan uygʻunlashma-gan, quloqqa keskin eshitiladigan tovushlarga aytiladi.

Ohangdosh intervallarga quyidagilar kiradi:

a) sof prima

sof oktava nihoyat mukammal ohangdoshlar

b) sof kvarta 1 mukammal ohangdoshlar sof kvinta

v) kichik tersiya katta tersiya kichik seksta katta seksta

Noohangdosh intervallarga q.uyidagilar kiradi: kichik sekunda, katta sekunda, orttirilgan kvarta,

kamaytirilgan kvinta,

kichik septima, katta septima. Qoida bo'yicha ohangdosh intervallar ohangdosh intervallarga, noohangdosh intervallar esa noohangdosh intervallarga aylanadilar.

Garmonik intervallarga misollar:

nomukammal ohangdoshlar

Musiqada qo'llaniladigan barcha garmonik intervallar eshituvchida qanday taassurot qoldirilishiga qarab, 2 guruhga bo'linadilar: **konsananslar** – birmuncha yumshoq va yoqimli eshitiladi, **dissonanslar** – birmuncha keskin va yoqimsiz eshitiladi.

Konsanans so'zi – italyancha consanansa – “ohangdosh”, dissonans so'zi - italyancha dissonansa – “noohangdosh” ma'nolarini beradi.

Konsanans intervallarga barcha sof intervallar: prima, kvarta, kvinta, oktava (mukammal konsananslar) va katta va kichik tertsiya hamda katta va kichik seksta intervallari (nomukammal konsananslar) kiradi.

Diatonik intervallar orasida dissonanslarga katta va kichik sekundalar, katta va kichik septimalar hamda orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallari kiradi.

Konsanans va dissonans intervallarning jadvali

1	nihoyat mukammal konsonanslar	sof.1, sof.8
2	mukammal konsonanslar	sof.4, sof.5
3	nomukammal konsonanslar	kich.3, kat.3 kich.6, kat.6
4	dissonans intervallar	kich.2, kat.2 kich.7, kat.7

		ort.4, kam.5
--	--	--------------

Tarkibli (murakkab) intervallar

Oralg'i oktavadan keng bo'lgan intervallarga **tarkibli** yoki murakkab intervallar deyiladi, chunki ular oktava va oddiy interval qo'shilmasidan iborat bo'ladi. Ikki oktava oralig'idagi tarkibli intervallar quyidagi nomlarga ega: nona, detsima, undetsima, duodetsima, tertsdetsima, kvartdetsima, kvintdetsima. Undan ham katta hajmdagi (oralig'i ikki oktavadan ham keng) intervallar maxsus nomlarga ega emaslar.

Tarkibli intervallar jadvali


t\ r	intervallarning nomlari	pog'onalar soni	tuzilishi (oktava + oddiy interval)
1.	nona – “to'qqizinchi”	9	8+2 (oktava+sekunda)
2.	detsima – “o'ninchi”	10	8+3 (oktava+tertsiya)
3.	undetsima – “o'n birinchi”	11	8+4 (oktava+kvarta)
4.	duodetsima – “o'n ikkinchi”	12	8+5 (oktava+kvinta)
5.	tertsdetsima – “o'n uchinchisi”	13	8+6 (oktava+seksta)
6.	kvartdetsima – “o'n to'rtinchi”	14	8+7 (oktava+septima)
7.	kvintdetsima – “o'n beshinchi”	15	8+8 (oktava+oktava)

Tarkibli intervallar hajmiga, ya'ni oktavaga oddiy intervallardan qaysisi qo'shilganiga qarab, umum qoidalariga bo'ysunadilar. Masalan, nona intervali oktavaga sekunda intervali qo'shilishidan hosil bo'lishiga bog'liq holda; oktavaga kat.2 qo'shilsa kat.9, kich.2 qo'shilsa kich.9 bo'ladi.

Oddiy intervallar kabi tarkibli intervallar ham orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Tarkibli intervallarning aylanishi

Tarkibli intervallarning aylanmasini hosil qilish uchun uning asosini 2 oktava yuqoriga ko'tarish yoki cho'qqisini 2 oktava pastga tushirish lozim bo'ladi:



Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi bir joyga kuchishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashuvi, - Interval aylanishi deyiladi.

1. Asosiy (pastki tovushni) bir oktava pastga ko'chirish.
2. Cho'qqini (yuqori tovushni) bir oktava pastga ko'chirish. Aylanish natijasida yangi interval xosil bo'ladi.

Qoida bo'yicha, sof intervallar – sofga, kichik intervallar – kattaga, katta intervallar- kichikka, ortirilgan intervallar kamaytirilganga, kamaytirilgan intervallar ortirilganga aylanadi va aksincha.

TARKIBLI INTERVALLAR.

Musiqada oddiy intervallardan tashqari oraligi oktavadan keng intervallar ham kullaniladi. Oraligi bir oktavadan keng intervallarni tarkibli interval deyiladi. Har bir tarkibli interval pog'onalar soniga qarab nom olgan.

Nona - 9 = Oktava orqali tuzilgan sekunda.

Detsima - 10 = Tertsiya.

Undettsima -11 = Kvarta.

Duodettsima -12 = Kvinta.

Tertsdettsima - 13 = Seksta.

Kvartdettsima -14 = Septima.

Kvintdettsima - 15 = Oktava.

Tarkibli intervallarda sifat mikdorini belgilash uchun - sof, katta, kichik, ortirilgan, kamaytirilgan so'zlar kullanilmagan.

OXANGDOSH VA NOOXANGDOSH INTERVALLAR.

Oxangdosh (konsonans) va nooxangdosh (dissonans) intervallar bo'ladi.

Oxangdosh (konsanans) deb bir-biri bilan uygunlashgan, oxangdosh bo'lib eshitiladigan tovushlar yigindisiga aytiladi.

Nooxangdosh (dissonans) deb bir-biri bilan uygunlashmagan, kulokka keskin yeshitiladigan tovushlarga aytiladi.

Oxangdosh intervallar.

Sof prima Nixoyatta mukammal oxangdoshlar.

Sof oktava

Sof kvinta Mukammal oxangdoshlar.

Sof kvarta

Kichik tertsiya

Katta tertsiya Nomukammal oxangdoshlar.

Kichik seksta

Katta seksta

Nooxangdosh intervallar.

Kichik sekunda

Katta sekunda

Ortirilgan kvarta

Kamaytirilgan kvinta

Kichik septima

Katta septima

Qoida bo'yicha oxangdosh - oxangdoshga, nooxangdosh — nooxangdosh intervallarga aylanadi.

Dissonans intervallarning laddagi echilishi

Dissonanslarning laddagi echilish tamoyillari - noturg'un tovushlarni tonika uchtovushligi tovushlariga o'tishiga asoslanganligi sababli, har bir dissonansni laddagi echilishini to'g'ri amalga oshirish uchun, birinchi navbatda bu dissonansni qaysi tonallikka tegishli ekanligini aniqlash lozim.

Tonallikni berilgan interval gammaning qaysi pog'onasida joylashganligidan kelib chiqib, shu pog'onadan tonikagacha bo'lgan zarur intervalni sanab topish mumkin. Masalan, *re# - do* kam.7 intervali garmonik mi-majorda va garmonik mi - minorda uchrashi mumkin, chunki kam.7 intervali garmonik major va minorning VII pog'onasida tuziladi, *re#* tovushi esa xuddi shu tonalliklarning VII pog'onasi hisoblanadi.


Har bir noturg'un tovush o'ziga yaqin turg'un tovushga tortiladi, shuning uchun dissonanslarning laddagi echilishida har bir echiluvchi tovush o'ziga yaqin bo'lgan turg'un pog'onaga ravon harakat qiladi, bunda u katta yoki kichik sekundaga harakat qiladi. Agar dissonansning har ikkala tovushi noturg'un bo'lsa, ular ravon harakat bilan pog'onama-pog'ona echiladilar. Agarda dissonans tovushlaridan birortasi turg'un bo'lsa, echilishda bu tovush o'z o'rnida qolishi mumkin yoki sakrash yo'li bilan o'z tonalligining boshqa turg'un tovushiga o'tadi.

Dissonanslarning echilishida barcha orttirilgan intervallar kengayadi, kamaytirilgan intervallar esa torayadi.

Orttirilgan va kamaytirilgan intervallarning echilishi

Orttirilgan kvartaning ikkala tovushi ham noturg'un tovushdir va shuning uchun u echilishni talab etadi. Bunda intervalning cho'qqisi sekunda yuqoriga, asosi bo'lsa sekunda pastga - o'ziga mos tonallikning turg'un tovushiga o'tadi, natijada *kat.6* yoki *kich.6* intervali hosil bo'ladi.

Masalan, *fa-siort.4* intervali quyidagicha echiladi:



Kamaytirilgan kvinta intervalining echilishida uning asosi sekunda yuqoriga, cho`qqisi esa sekunda pastga, o`z tonalligining turg`un tovushlariga o`tadi, natijada *kat.3* yoki *kich.3* intervali hosil bo`ladi.

Kam.5 ning echilishi *ort.4* aylanmasining echilishi hisoblanadi. Masalan, *si-fa kam.5* intervali quyidagicha echiladi:



Kam.5 intervallari zanjirining echilishiga misol: (chap va o`ng qo`l partiyalarida):


P. Chaykovskiy. “Bolalar albomi”, №4 “Onajon”



Ort.4 va kam.5 – engarmonik teng intervallardir, ammo ularning echilishlari turlichadir, chunki bu intervallar turlicha pog`onalarda vaturlicha tonalliklarda joylashadilar. Masalan, *mi* - *lya* ort.4 *re*# - *lya* kam.5 intervaliga engarmonik tengdir.

Ammo, *mi* - *lya* ort.4 intervali IV yoki VI pog`onada, *re*# - *lya* kam.5 intervali esa faqat VII va II pog`onalarda joylashishlari mumkin (bu intervallarni tonalliklarini bizga ma`lum pog`onalardan kelib chiqib topish mumkin).


Agar bu interval *mi* - *lya* ort.4 sifatida qaralsa, unda *mi* tovushini IV yoki VI pog`ona deb qabul qilish mumkin, Birinchi holatda bu ort.4 ning tonalligi *B-dur* yoki *b-moll(garmonik)*, ikkinchi holatda esa *G-dur (garmonik)* yoki *g-moll* bo`ladi. Intervallarni laddagi echilishi tamoyillarini eslab, bu ort.4 ni barcha to`rtta tonallikda osongina echsa bo`ladi:



Basharti bu intervalni *re#*- *lya* kam.5 deb qaralsa, unda *re#* tovushini faqat VII yoki II pog`ona deb qabul qilinadi. Birinchi holatda bu ort.5ning tonalligi *E-dur* yoki *e-moll (garmonik)*, ikkinchi holatda esa *Cis-dur (garmonik)* yoki *cis-moll* bo`ladi. Shunga muvofiq, *re#*- *lya* kam.5 quyidagicha echiladi:



Orttirilgan sekunda intervali faqat garmonik major va garmonik minorning VI pog`onasida uchraydi. Uning ikkala tovushi ham (VI va VII pog`onalar) noturg`un bo`lib, tortilish qoidasi bo`yicha echiladi va majorda ham, minorda ham sof.4 intervalini hosil qiladi.



Kamaytirilgan septimaning echilishi ort.2 ni aylanmasini echilishining o`zidir. Kam.7ning ikkala tovushi ham tortilish qoidasi asosida sof.5 ni hosil qilib echiladilar.



Quyida keltirilgan misolda turlicha echilishlarning namunalarini ko`rish mumkin:



V.A. Motsart. K. V. Glyukning “Makka sayyohlari”

operasi mavzusiga variatsiyalar. Var. №3




Kamaytirilgan kvarta intervali faqat garmonik major (III pog`onada) va garmonik minorda (VII pog`onada) uchraydi.

Garmonik majorda kam.4 III va VI pog`onalardan iborat bo`ladi, uning asosi III pog`ona turg`un tovush bo`lib, echilganda o`z o`rnida qoladi. Kam.4 ning cho`qqisi garmonik majorda pasaytirilgan VI pog`ona bo`lib, o`zining tortilishi bo`yicha kichik sekunda pastga, gammaning V pog`onasiga echiladi:



Garmonik minorda kam.4 VII va III pog'onalardan iborat bo'ladi. Uning asosi ko'tarilgan VII pog'ona bo'lib, o'zining tortilishi bo'yicha kichik sekunda yuqoriga, tonikaga o'tadi. Kam.4 ning cho'qqisi garmonik minorda III turg'un pog'ona bo'lib, echilganda o'z o'rnida qoladi:





Kam.4 intervali majorda ham, minorda ham kich.3ga echiladi. Ammo, u majorda cho'qqining harakati bilan kichik sekunda pastga, minorda esa asosining harakati bilan kichik sekunda yuqoriga echiladi.

Quyida keltirilgan nota misolining 2 taktida *kam.4* ning echilish namunasiga e'tibor bering:

F. Shopen. Mazurka or. 17 №2



Orttirilgan kvinta kam.4 ning aylanmasidan iborat bo'lib, garmonik majorda (VI pog'onada) va garmonik minorda (III pog'onada) uchraydi. Garmonik majorda uning asosi pasaytirilgan VI pog'ona bo'lib, o'z tortilishi bo'yicha V pog'onaga echiladi, cho'qqisi bo'lsa – III pog'ona - turg'un tovush bo'lib, echilganda o'z o'rnida qoladi.




Garmonik minorda ort.5 III va VI pog'onalarda hosil bo'ladi. Uning asosi -

III pog`ona – turg`un tovush, echilganda o`z o`rnida qoladi. Cho`qqisi esa – ko`tarilgan VII pog`ona o`z tortilishi bo`yicha tonikaga echiladi.



Ort.5 majorda ham, minorda ham kat.6 echiladi. Ammo, bunda u majorda asosning harakati bilan kichik sekunda pastga, minorda esa cho`qqini harakati bilan kichik sekunda yuqoriga chiqadi.

Katta va kichik sekunda, katta va kichik septima intervallarining laddagi echilish namunalari



Yuqorida keltirilgan jadvalda katta va kichik sekunda va septima-larning turlicha echilish ulublari ko`rsatilgan. Echilishlar bir qarashda turli-tumanday tuyulashiga qaramasdan, ularning asosida yagona tamoyil: noturg`un tovushlarni turg`un tovushlarga o`tishi yotadi.

An'anaviy musiqa nazariyasida sekundalarning primaga va septimalarning oktavaga echilishi mutlaqo maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Quyida, kam bo`lsada xalq va professional musiqada uchrab turadigan ana shunday noan'anaviy echilishlarga misol keltiramiz:


Latish xalq musiqasi




Konsanans intervallarning laddagi echilishi

Noturg'un konsananslar lad tortilishilari qonuniga bo'ysunib, turg'un tovushga intiladilar. Amaliyotda barcha tonalliklarda ham noturg'un konsananslarni echishda tonallikning tonika uchtovushligi tovushlarini turg'un ekanligini va noturg'un tovushlarni tortilish yo'nalishlarini esda tutish lozim. Misol sifatida ba'zi noturg'un konsananslarni mumkin bo'lgan echilishlarini keltiramiz.


Tertsiyalar




Kvintalar




Sekstalar



Kvartalar



Tertsyalar



Dissonanslarning laddagi tortilishga bog'liq bo'lmagan echilishi (Akustik echilish)

Intervallarning lad tortilishlari bo'yicha echilishlaridan tashqari musiqada dissonanslarni konsananslarga (ularni turg'un yoki noturg'unligidan qat'iy nazar) o'tishi bilan bog'liq echilish turlari ham bor. Bunda orttirilgan va kamaytirilgan intervallarni echilishi ko'pincha lad tortilishi bo'yicha echilishga mos keladi. Katta va kichik sekunda va septimalar, shuningdek sof kvartalar esa faqat ayrim hollardagina lad echilishiga mos keladi, shunga ko'ra boshqa qoidalar bo'yicha ham echiladilar.

Bu intervallarni echilish an'analari XVII asrgacha bo'lgan qat'iy uslubdagi polifonik musiqada yuzaga kelgan. Bu musiqaning asosini major-minor tizimi emas, balki, har holda lad tortilishlari bo'lmagan o'rta asr lادلari tashkil etgan.

Bu an'analarga muvofiq, sekundaning asosi dissonans tovush hisoblanib, ravon harakat bilan katta yoki kichik sekunda pastga yo'naltiriladi. Uning cho'qqisi erkin tovush hisoblanadi va echilishda o'z joyida qoladi yoki pastki tovush bilan konsanans hosil qiluvchi boshqa tovushga o'tadi. Odatda sekundaning cho'qqisi kvarta yuqoriga sakraydi. Shunday qilib, sekunda tertsiyaga yoki

sekstaga echiladi.



Musiqa asarlaridagi har bir interval u yoki bu tonallikda jaranglashi sababli, asosni katta yoki kichik sekunda pastga yo`naltirilishi tonal asosga bog`liq bo`ladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi *lya – si* intervali sol© tovushi bo`lgan tonalliklarda (lya major, fa© minor va h.k.) kich.2 pastga, sol© tovushi bo`lmagan tonalliklarda (do major, sol major va h.k.) kat.2 pastga yo`naltiriladi.

Kichik sekunda - interval asosini kat.2 ga yurishi bilan echiladi (chunki hech bir ladda yonma-yon joylashgan ikkita kichik sekunda uchramaydi), masalan:



Shunga muvofiq sekundalarni aylanmasi bo`lmish septimalarda intervalning cho`qqisi dissonans, asosi esa erkin tovush hisoblanadi. Shuning uchun, septima - cho`qqining pastga tomon ravon harakati orqali echiladi, asos esa o`z o`rnida qoladi yoki kvartaga sakrash bilan yuqoriga ko`tariladi:



Septimalar echilishida cho`qqining katta yoki kichik sekundagi yurishi tonal asosga bog`liq bo`ladi.


Katta septima, xuddi kichik sekunda kabi cho`qqining faqat kat.2 ga yurishi orqali echilishi mumkin:



Nona intervali ikki xil usul bilan echiladi:

a) cho`qqi sekunda pastga (katta nonada – kat.2 ga, kichik nonada – kich.2

ga) harakat qiladi, asos esa o'z o'rnida qoladi yoki sof.4 ga sakrash orqali yuqoriga ko'tariladi. Natijada sof. 8 yoki sof.5 hosil bo'ladi:



b) nonaga - oktava orqali sekunda, deb qaraladi va sekunda kabi echiladi, shu bilan birga, cho'qqining kvarta yuqoriga sakrashi odatda, kvinta pastga sakrash bilan almashtiriladi:




Qat'iy polifonik yozuv davrida ikkala tovushi ham erkin kvarta dissonans hisoblangan. Ammo, kvarta ko'pincha cho'qqining katta yoki kichik sekunda pastga yo'naltirilishi bilan echiladi. Shunday qilib, kvarta tertsiyaga echiladi:



Echilish namunalarini quyidagi nota misolida ko'ring: 3-taktda – sekundaning echilishi, birinchida – kvartaning, oxirigida – septimaning, ikkinchida nonaning echilishlari ro'y bergan:

A. Yuryan qayta ishlagan (1856-1922)

latish xalq qo'shig'i



Mazkur musiqa asarida laddagi echilish bilan lad tortilishiga bog'liq

bo'lmagan echilish orasidagi farq aniq his qilinadi. Laddagi echilishda sekunda, septima va kvarta tonallikdagi turg'un tovushlarga o'tib, tugallanganlik taassurotini hosil qiladi. Lad tortilishi bilan bog'liq bo'lmagan echilishda esa, noturg'unlik taassurotlarini to'planishi yuz beradi, undan keyin, turg'unlikka echilishga bo'lgan ehtiyoj ayniqsa, shiddatli ravishda his qilinadi.

Echilishda tugallanganlikni to'la his qilish uchun uni turg'un intervalgacha etkazish zarur. Natijada juft echilish ro'y berib, dissonans noturg'unlikka echiladi va bu noturg'unlik o'z navbatida turg'un tovushlarga echiladi. Yakuniy echilishni aniq idrok qilish uchun eshituv organlarini u yoki bu tonallikka oldindan tayyorlash zarur (hech bo'lmaganda tonallikni tonika uchtoqliгинi chalib ko'rib) bo'ladi.

Yuqorida qayt qilinganlarni *fa – sol* va *fa - sol*˘ sekundalarini turlicha tonalliklarda juft echilish misollari bilan tushuntiramiz.


kat.2



kich.2



Shuningdek, kat.7 va kich.7 intervallarini uchta bemolli tonalliklarda juft echilishlarini ham qarab chiqamiz:



Echilishni boshqacha variantlari ham bo'lishi mumkin ammo, maqsad bitta,

u ham bo`lsa echilishni turg'un tovushlargacha etkazishdir.

Xulosa

Intervallar ikki miqdor son va sifat miqdorini aniqlaydi. Biz intervallar orqali ohangdoshlik va noohangdoshlikni bir-biridan fariqlashni va shu bilan birga ularning bir qancha turlari va guruhlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ldim.

Yana shuni aytishim mumkinki intervallarni oddiy va murakabligini ham va ularning tartibliy interval ekanligi haqida ham qisqacha malumotlar mavjud.

Konsanas va dissanas intevalar va ularning tarkibiy qisimlari haqida ham malumotlar keltirilgan.

ADABIYOTLAR.

1. Elementar nazariyasi» Vaxromeev. T.1967 y.
2. O.Fayziev «O'zbekiston maktablarida musiqiy-nafosat tarbiyasi»
T. 1992 y.
3. O.Azimova Garmoniya . T, 1999.
4. I.A.Akbarov «Musiqi lug'ati» - T, 1997.
5. O'zbekiston Vatanim manim T, 2000, 2002.
6. P.I. CHaykovskiy Detskiy albom, Vremena goda
7. Musiqi elementar nazariyasi I. Sposobin
8. Musiqi nazariyasi M Karimova . Ukuv uslubiy qo'llanma.